

PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

ADABIYOT

Ijod maktablarining 7-sinfi uchun darslik

**Prezident ta'lif muassasalari agentligi tomonidan nashrga
tavsiya etilgan**

Toshkent–2021

**UO‘K 821.512.133(075.3)
KBK 83.3(5O'zb) S 60**

**Adabiyot Ijod mакtablarining 7-sinfi uchun darslik. –T: Zamin nashr,
2021. –240 b.**

Tuzuvchi-mualliflar:

**Shuhrat Sirojiddinov, Bahodir Karimov, Shuhrat Rizayev,
Shomirza Turdimov, Iqboloy Adizova,
Abdumurod Tilavov, Dilnavoz Yusupova**

**Mas’ul muharrir:
Jamoliddin Nurmuhammadov**

Taqrizchilar:

Nasimxon Rahmonov, filologiya fanlari doktori, O‘zMU professori;
Sharofat Toshmirzayeva, Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi FFIDUM oliy
toifali ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi.

Aziz o‘quvchim!

Qalbingizda badiiy adabiyotga, ilm-fanga mehr-muhabbat uyg‘ongani – bu
bebaho ma’naviy ne’mat, albatta. So‘z san’ati va ilmga bo‘lgan qiziqishlaringiz
sizni ijod mакtabi deb atalgan bilim dargohiga yetaklab keldi. Bu o‘quv maskanida
siz boshqa fanlar bilan birga badiiy ijod tabiatini, ijod sirlari, dunyoga taniqli
adiblarning eng sara asarlari bilan tanishasiz. Ana shu tanishuv, o‘qish, o‘rganish
va o‘zlashtirish yo‘lida Sizga ushbu kitob yordamchi bo‘ladi. Darvoqe, sizlar
dan kimdir yozuvchi yoki shoир, kimdir dramaturg yoki adabiyotshunos bo‘lishni
ich-ichidan xohlaydi. Chinakam adabiyot muallimi bo‘lish uchun ham badiiy ijod
tabiatini chuqur o‘rganmoq kerak.

Ushbu darslik vositasida Siz, azizlar, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini,
o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini, zamonaviy o‘zbek adabiyotini, jahon adiblari
ijodidan saralab olingan namunalarni chuqurroq, batafsilroq, kengroq o‘rganasiz.
Hikoyalari o‘qiysiz, she’rlar yod olasiz, roman yoki qissalardan olingan parchalar
ni mutolaa qilasiz. Tabiiyki, bu kitobdagagi har bir so‘z, har bir ibora, har bir jumla
Sizni e’tiborsiz qoldirmaydi, degan umiddamiz!

**O‘zbebekiston Respublikasi Prezident ta’lim muassasalari agentligining yozma ruxsatisiz
ko‘paytirish, tarqatish, qisman yoki to‘liq ko‘chirish ta’qilganadi.**

ISBN 978-9943-7426-9-7

**© Zamin nashr, 2021.
© Prezident ta’lim muassasalari agentligi 2021.**

BADIY IJOD VA IJODKOR TABIATI

Azizlar! Badiiy ijod tabiatiga ko‘ra muttasil izlanishlar, yangilanishlar, o‘zgarishlar talab etadi. Bir xillik, qolipdagi fikrlar, taqlidlar san’atning bu turida o‘zini oqlamaydi. Hamma biladigan gaplarni takrorlash, birovlar so‘zlagan hikoyatlarni qayta gapirish – bular shunchaki ergashish va taqlidni anglatadi. Haqiqiy badiiy adabiyot chin ma’nodagi so‘z bo‘stonida paydo bo‘lgan yangiliklardan, yangicha badiiy tafakkur izidan maydonga keladi.

Shunday yangiliklarga tashna bo‘lgan iste’dodli o‘zbek shoiri Abdulhamid Cho‘lpon bir maqolasida: “**Ko‘ngil yangilik qidiradir**” deb yozadi.

Oqmay qolgan suv kirlanadi, shamol tegmay turgan olov o‘chadi, o‘tin qalanmagan cho‘g‘ ustini kul qoplaydi. O‘qilmagan kitob sarg‘ayadi, g‘aladonda qolib ketgan qalam yozishni unutadi, oshxonada ishlatilmagan pichoq zanglaydi. Badiiy ijod sohasida ham adabiy fikrning turg‘unlashuvi o‘zini oqlamaydi. Xususan, so‘z badiiy adabiyot to‘qimasida turli adabiy usullar, betakror badiiy san’atlar vositasida o‘ziga umrboqiy va ko‘rkam liboslar to‘qiydi. Alovida olingen so‘z ko‘pincha bitta ma’noga ega bo‘ladi. Yonidagi yordamchilari, boshqa turkum so‘zlar bilan birikib, iboralarga aylanishi natijasida ta’sirchan, ohangdor, obrazli tushunchaga aylanadi. Topib o‘z o‘rnida aytilgan so‘z qudratli bo‘ladi.

Qudratli so‘z qadrini tog‘liklar juda yuksak baholashiga urg‘u berib, taniqli avar shoiri Rasul Hamzatov: “**Bunday so‘zning bahosi egarlangan otga teng**”, deb yozadi.

Adabiyot – jozibalar, hayratlar, hayajonlar olami. Bu olamga poklik, pokizalik, haqiqat yarashadi. Zero, badiiy ijod o‘z tabiatiga ko‘ra to‘g‘ri so‘zni, haqiqatni, cheksiz tasavvur va tafakkur kengliklarini xush ko‘radi. Adabiyot olamining muhtasham koshnonasida fikri toza, ko‘ngli beg‘ubor bo‘lgan iste’dodli odam o‘z o‘rnini topadi. Adabiyotdek muhtasham, azaliy va abadiy koshona eshididan iste’dod egalari dadil kirib boradi.

Ma’naviyati baland, ruhi tetik, yuragi keng ijodkorlardan o‘rnak olmoq kerak. Chunki ular so‘zga xiyonat qilmaydilar. Shunday haqiqiy ijodkorlar borligi uchun dunyo go‘zal, tinch, osoyishta, fayzli.

Aslida, har qanday badiiy yoki ilmiy-adabiy asar yurak-yurakdan pishib yetilgan ijod mahsuli bo‘lishi shart. Aks holda u birovning qalb qo‘rg‘onini zabt eta bilmaydi.

Haqiqiy ijodkor o‘z tabiatiga ko‘ra hamisha el-yurt, millat va Vatan dardi bilan yashaydi. Xalqning qalbiga qulqoq tutadi.

Ijod va ijodkor to‘g‘risidagi hamma savollar javobli emas. Sir, sinoatlar, jumboqlar, ruhiy mezon va boshqa o‘nlab sifatlar ham san’at hodisasi uchun oxirgi xulosalarni bera bilmaydi. Ijodkorda va umuman har qanday odamda hech bir qonun kitobida yozib qo‘yilmagan bepoyon bir ma’naviy huquq bor. Bu o‘y surish, so‘z aytish, fikr aytish huquqidir.

Aziz o‘quvchi! Sizda ham xuddi shunday ma’naviy haq-huquq bor. Ijod qilish, ko‘ngil kechinmalarini badiiy so‘z vositasida ifodalash imkonи bor. Adabiyotga, ilm-fanga mehr-muhabbat qalbingizda aslo so‘nmasin. Go‘zal asarlardan zavqlanish tuyg‘usi sizga hamisha hamroh bo‘lsin.

Saida Zunnunova

(1926–1977)



“*U xotin-qizlarga xos nazokat, iforday tatimli lirikasi bilan dillarimizni erkalatib, hordiqlarimizni yozib, mehnatga rag‘batimizni toblantirib, idrokimizni go‘zalliklar tomon yetaklaydigan fahmi shoiramiz bo‘lib yetishdi.*

G‘afur G‘ulom

“*...Yolg‘izlikda fikr, xayol, so‘z bilan olishuv mashaqqatisiz hech qachon san’at asari yaratilgan emas, yaratilmaydi ham. Saida Zunnunova ham yuraklarga obi hayot yanglig‘ ta’sir qiladigan so‘zlar qudug‘ini rostdan ham igna bilan qazidi va shu mashaqqatdan hech bir vaqt begonasiramadi, undan o‘zini olib qochmadi, yengilroq yo‘llarni axtarmadi.*

Ibrohim G‘ofurov

ADIBA HAQIDA

Saida Zunnunova 1926-yil Andijon shahrida tug‘ilgan. Andijon o‘qituvchilar instituti va O‘rta Osiyo universitetining filologiya fakultetini tugatgan. 1950-60-yillarda bir qator tahririylatlarda va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida ishlagan.

Saida Zunnunovaning ilk she’ri 1945-yili Andijon viloyati gazetasida bосilgan. «Qizingiz yozdi» nomli ilk she’rlar to‘plami esa talabalik yillari (1948) nashr etilib, she’riyat muxlislari e’tiborini qozondi. Shundan keyin uning «Yangi she’rlar» (1950), «Gullar vodiysi» (1954), «Qizlarjon» (1962), «She’rlar» (1964), «Bir yil uylari» (1967), «Nilufar» (1972)



Saida Zunnunova va uning turmush o‘rtog‘i Said Ahmadga Adiblar xiyobonida (Toshkent) o‘rnatalgan haykal



she'riy to‘plamlari e’lon qilindi. Shoira she’rlar bilan bir qatorda «Sodiq va Anor» (1947), «Xayrixon» (1949), «Surat bilan suhbat» (1966), «Qo‘shnilarim» (1968) singari dostonlar ham yaratdi.

Shoira dostonlaridagi yetakchi mavzu urush va ayollar taqdiri bilan bog‘liq. Bolaligida qattiq ta’sirlangan voqeа-hodisalar shoirani butun umri davomida tark etmaydi. Ko‘plab she’rlarida, xususan, dostonlarida shoira bu mavzuga qayta-qayta murojaat qiladi. Bu haqda uning o‘zi “Debocha”da shunday eslaydi: “Urush yilla-rida mahalladagi ayollarning hayotlari menga qattiq ta’sir qilar edi. Yurib-yurib «Ona» degan she’rimni yozdim, lekin ko‘nglim bo‘shamadi, o‘zim qanoatlanmadim. Uzoq vaqt dilimda ko‘tarib yurgan bu dardni oxiri «Ruh bilan suhbat»da (“Surat bilan suhbat” ayrim nashr nusxalarida “Ruh bilan suhbat” tarzida ham nomlangan) to‘kdum (1963-1966-y.). Yana nimadir yetishmadi, «Qo‘shnilarim» (1968) yozildi”.

Saida Zunnunova bir qancha hikoya, qissa va pyesalar ham yozgan. Uning «Gulbahor» (1956), «Povest va hikoyalar» (1957), «Gulxan» (1959), «Do‘stlik» (1960), «Qanot» (1961), «Olov» (1962), «Ko‘chalar charog‘on» (1965), «Bo‘ylaringdan o‘rgilay» (1972) singari nasriy kitoblari, «Ona» (1966) va «Ko‘zlar» (1968) nomli pyesalarida xotin-qizlar hayoti tasvirlangan.

Saida Zunnunova 1977-yil Toshkentda vafot etgan.



Saida Zunnunova va Said Ahmadga bag‘ishlangan “Sabr-u sadoqat”
serialidan lavha

Saida Zunnunova ko‘proq lirk dostonlar yozgan. Bunday dostonlarda asar yozilishiga turki bo‘lgan kichik bir voqeа-hodisa ijodkorning kechinmalari, hissiyotlari, ruhiy tug‘yonlari vositasida bayon etiladi. “Surat bilan suhbat” – ana shunday usulda yaratilgan asarlardan biri.

**Shuhrat Sirojiddinov, Bahodir Karimov, Shuhrat Rizayev, Shomirza Turdimov,
Iqboloy Adizova, Abdumurod Tilavov, Dilnavoz Yusupova**

ADABIYOT

Ijod muktablarining 7-sinfi uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lif muassasalari agentligining
Ilmiy-metodik kengashi tomonidan tasdiqlangan*

Muharrir

Техник мухарир

Sahifalovchi

Yorqin Inog'omov

Sanjar Gafurov

Rustam Xudayberganov

Gulzoda Nazirova

Nashriyot litsenziyasi AI №015. 20.07.2018. Bosishga
13.10.2021 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8
«Times New Roman» garniturasi. Shartli bosma tabog'i
Adadi 400 , Buyurtma № 1157-21

Original-maket “Zamin Nashr” MCHJda tayyorlandi.
«Credo Print» MCHJ kitob fabrikasida chop etildi.
100053, Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi, 160-uy.
Tel: 71 234-44 01/05. www.credoprint.uz